

RAQAMLI SUVERENITET TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY MOHIYATI**Bahodirov Shahzod Ortiq o'g'li****Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti****Boxodirovshaxzod149@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20341048>

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli suverenitet tushunchasining nazariy-huquqiy mazmuni, uning davlat suvereniteti bilan o'zaro bog'liqligi hamda zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli xizmatlar, transchegaraviy axborot oqimlari va kiberxavfsizlik muammolari davlatlarning an'anaviy suverenitet haqidagi qarashlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tezisda raqamli suverenitet davlatning raqamli makonda mustaqil siyosat yuritish, milliy axborot infratuzilmasini himoya qilish, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, kiberxavfsizlik tizimini shakllantirish va raqamli iqtisodiyotni milliy manfaatlar asosida rivojlantirish qobiliyati sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: Raqamli suverenitet, davlat suvereniteti, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, shaxsga doir ma'lumotlar, raqamli huquqlar, axborot infratuzilmasi, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, milliy raqamli makon.

THEORETICAL AND LEGAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF DIGITAL SOVEREIGNTY**Bahodirov Shahzod****Master's student of Tashkent State Law University****Boxodirovshaxzod149@gmail.com**

Annotation. This thesis analyzes the theoretical and legal content of the concept of digital sovereignty, its relationship with state sovereignty, and its role in the context of modern digital transformation. Digital technologies, artificial intelligence, big data, cloud services, cross-border information flows, and cybersecurity problems require states to reconsider their traditional views on sovereignty. The thesis defines digital sovereignty as the ability of a state to conduct independent policy in the digital space, protect national information infrastructure, ensure the security of personal data, form a cybersecurity system, and develop the digital economy based on national interests.

Keywords: Digital sovereignty, state sovereignty, information security, cybersecurity, personal data, digital rights, information infrastructure, digital transformation, e-government, national digital space.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ЦИФРОВОГО СУВЕРЕНИТЕТА**Баходиров Шахзод****магистрант Ташкентский государственный юридический университет****Boxodirovshaxzod149@gmail.com**

Аннотация. В настоящем тезисе анализируются теоретико-правовое содержание понятия цифрового суверенитета, его взаимосвязь с государственным суверенитетом, а также его значение в условиях современной цифровой трансформации. Развитие цифровых технологий, искусственного интеллекта, больших данных, облачных сервисов,

трансграничных потоков информации и проблемы кибербезопасности обуславливают необходимость пересмотра традиционных представлений о государственном суверенитете. В тезисе цифровой суверенитет обосновывается как способность государства проводить самостоятельную политику в цифровом пространстве, обеспечивать защиту национальной информационной инфраструктуры, безопасность персональных данных, формировать систему кибербезопасности и развивать цифровую экономику на основе национальных интересов.

Ключевые слова: цифровой суверенитет, государственный суверенитет, информационная безопасность, кибербезопасность, персональные данные, цифровые права, информационная инфраструктура, цифровая трансформация, электронное правительство, национальное цифровое пространство.

Kirish

XXI asrda davlat suvereniteti tushunchasi faqat hudud, aholi va siyosiy hokimiyat bilan chegaralanib qolmay, raqamli makon, axborot resurslari, ma'lumotlar bazalari, algoritmlar, raqamli infratuzilma va kiberxavfsizlik tizimlari bilan ham bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Chunki bugungi kunda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, sud-huquq tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning kundalik hayoti tobora raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilmoqda. Bunday sharoitda davlatning mustaqilligi faqat siyosiy yoki iqtisodiy mustaqillik bilan emas, balki raqamli muhitda ham o'z manfaatlarini himoya qila olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Raqamli suverenitet zamonaviy huquqshunoslik va siyosatshunoslikda nisbatan yangi tushuncha bo'lsa-da, uning ildizlari klassik davlat suvereniteti nazariyasiga borib taqaladi. An'anaviy ma'noda suverenitet davlatning o'z hududida oliy hokimiyatga ega bo'lishi va tashqi munosabatlarda mustaqil harakat qilishi sifatida tushunilgan. Ammo raqamli davrda hududiy chegaralar an'anaviy shaklda ishlamaydi: ma'lumotlar bir davlatda yaratiladi, boshqa davlatdagi serverda saqlanadi, uchinchi mamlakat kompaniyasi tomonidan qayta ishlanadi va global platformalar orqali tarqatiladi. Shu sababli davlatning raqamli makondagi nazorat, himoya va tartibga solish vakolatlari alohida nazariy-huquqiy masala sifatida maydonga chiqmoqda.

Asosiy qism

Raqamli suverenitet deganda davlatning raqamli infratuzilma, axborot oqimlari, ma'lumotlar, elektron xizmatlar, sun'iy intellekt tizimlari, raqamli platformalar va kiberxavfsizlik sohasida mustaqil siyosat yuritish hamda milliy manfaatlarini himoya qilish qobiliyati tushuniladi. Luciano Floridi raqamli suverenitet masalasini zamonaviy axborot jamiyatining eng muhim muammolaridan biri sifatida baholab, raqamli texnologiyalar ustidan nazorat masalasi davlat, jamiyat va shaxs erkinligi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi.[5] Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli suverenitet faqat texnik xavfsizlik emas, balki davlat hokimiyatining yangi raqamli muhitdagi huquqiy, siyosiy va institutsional ifodasidir.

Yevropa ilmiy-huquqiy adabiyotlarida raqamli suverenitet ko'pincha strategik avtonomiya tushunchasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Yevropa Parlamenti materiallarida raqamli suverenitet texnologik va iqtisodiy qaramlikni kamaytirish, raqamli infratuzilma ustidan nazoratni kuchaytirish hamda global texnologik kompaniyalar ta'sirini muvozanatlashtirish vositasi sifatida izohlanadi.[6] Bunda muhim jihat shundaki, raqamli suverenitet izolyatsiya yoki yopiq raqamli

makon yaratishni anglatmaydi. Aksincha, u davlatning global raqamli tizimlarda ishtirok etgan holda o'z milliy manfaatlarini mustaqil himoya qila olishini bildiradi. 2025-yilda Yevropa Komissiyasi huzuridagi tadqiqot markazi ham raqamli suverenitetni global tarmoqlar bilan bog'liqlikni saqlagan holda raqamli sohada strategik mustaqillikni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qilgan.[7]

Nazariy jihatdan raqamli suverenitet bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Birinchidan, bu — ma'lumotlar suvereniteti, ya'ni davlat hududida shakllanayotgan yoki fuqarolarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarning qonuniy yig'ilishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va himoya qilinishi ustidan huquqiy nazoratdir. Ikkinchidan, bu — texnologik suverenitet, ya'ni davlatning muhim axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar, elektron hukumat platformalari va aloqa infratuzilmasini barqaror ishlatish imkoniyatidir. Uchinchidan, bu — kiberxavfsizlik suvereniteti, ya'ni davlatning kibermakondagi tahdidlarga qarshi turish, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish va kiberhodisalarga javob berish salohiyatidir. To'rtinchidan, bu — normativ-huquqiy suverenitet, ya'ni davlatning raqamli munosabatlarni milliy qonunchilik asosida tartibga solish imkoniyatidir.

Raqamli suverenitetning huquqiy mohiyatini aniqlashda inson huquqlari bilan bog'liq jihatlar alohida ahamiyatga ega. Chunki raqamli makon faqat davlat manfaatlarini maydoni emas, balki shaxsning axborot olish, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi, elektron xizmatlardan foydalanish va raqamli xavfsizlik huquqlari amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekani belgilangan. Shu moddaning davomida shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatish va qonunga xilof ravishda to'plangan ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilish huquqi ham mustahkamlangan. [1] Demak, raqamli suverenitet faqat davlat xavfsizligi masalasi emas, balki insonning konstitutsiyaviy huquqlarini raqamli muhitda kafolatlash mexanizmidir.

Konstitutsiyaning 33-moddasi esa raqamli suverenitetning axborot-huquqiy asoslarini belgilaydi. Unda har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekani, istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlanishi, davlat esa Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan.[1] Bu norma raqamli makonda davlat va fuqaro munosabatlari muvozanatini anglatadi: bir tomondan, davlat axborot erkinligini kafolatlaydi, ikkinchi tomondan esa axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlikni ta'minlashi lozim.

O'zbekiston qonunchiligida raqamli suverenitetni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonundir. Mazkur Qonunda shaxsga doir ma'lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish Vazirlar Mahkamasi va vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.[2] Shuningdek, qonunchilikda ayrim shaxsga doir ma'lumotlar, jumladan biometrik va genetik ma'lumotlar hamda O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan telekommunikatsiya operatorlaridagi foydalanuvchilarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi hududida saqlanishi shartligi ko'rsatilgan.[2] Ushbu talab ma'lumotlar suverenitetining aniq huquqiy ifodasi hisoblanadi. Chunki fuqarolarning muhim shaxsiy ma'lumotlari milliy yurisdiksiya doirasida saqlanishi davlatning ularni himoya qilish imkoniyatini kuchaytiradi.

Raqamli suverenitetni ta'minlashda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun ham alohida o'rin tutadi. Ushbu Qonunning maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik,

kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi belgilangan.[3] Bu qoidalar raqamli suverenitetning xavfsizlik komponentini mustahkamlaydi. Ayniqsa, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalashtirish, ularning yagona reyestrini yuritish, kiberxavfsizlik talablarini belgilash va monitoring tizimlarini joriy etish raqamli suverenitetning institutsional mexanizmlarini shakllantiradi.[3]

Raqamli suverenitetni faqat mudofaa yoki xavfsizlik kategoriyasi sifatida talqin qilish yetarli emas. U raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bilan ham bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ma'qullangan, uni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tashkil etilgan hamda elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta'lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.[4] Bu strategik hujjat raqamli suverenitetning amaliy asosini tashkil etadi, chunki davlatning raqamli mustaqilligi raqamli infratuzilma, milliy kadrlar salohiyati, mahalliy IT bozori, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlar rivojiga bog'liq.

Raqamli suverenitetni ta'minlashda bir qator nazariy muammolar mavjud. Birinchi muammo — raqamli makonning transchegaraviy xususiyatidir. Internet, bulutli texnologiyalar va global platformalar ma'lumotlarni davlat chegaralaridan tashqarida qayta ishlash imkonini beradi. Bu esa milliy qonunchilikning hududiy amal qilish doirasini murakkablashtiradi. Ikkinchi muammo — global texnologik kompaniyalarga qaramlikdir. Agar davlatning muhim axborot tizimlari, davlat xizmatlari yoki fuqarolar ma'lumotlari xorijiy platformalar, xorijiy bulutli xizmatlar yoki tashqi dasturiy ta'minotga ortiqcha bog'liq bo'lsa, bu raqamli suverenitetni zaiflashtiradi. Uchinchi muammo — shaxs huquqlari va davlat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatdir. Raqamli nazorat, biometrik identifikatsiya, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish va katta ma'lumotlar tahlili davlat boshqaruvi samaradorligini oshirsa-da, shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlar himoyasi bo'yicha xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli suverenitet demokratik-huquqiy davlat prinsiplariga zid bo'lmasligi kerak. Aksincha, u inson huquqlari, qonun ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik asosida shakllanishi lozim. Raqamli suverenitet nomi ostida axborot erkinligini asossiz cheklash, raqamli makonni haddan tashqari yopish yoki fuqarolar ustidan nomutanosib raqamli nazorat o'rnatish huquqiy davlat tamoyillariga mos kelmaydi. Shuning uchun raqamli suverenitetning zamonaviy modeli "himoya + ochiqlik + huquqiy kafolat" uchligi asosida qurilishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli suverenitet zamonaviy davlat suverenitetining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. U davlatning raqamli makonda mustaqil siyosat yuritishi, milliy axborot infratuzilmasini himoya qilishi, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi, muhim axborot tizimlari barqarorligini kafolatlashi hamda raqamli iqtisodiyotni milliy manfaatlar asosida rivojlantirishi bilan belgilanadi.

Raqamli suverenitetning nazariy-huquqiy mohiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida davlat xavfsizligi, inson huquqlari, iqtisodiy mustaqillik, axborot siyosati va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq kompleks huquqiy kategoriya hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida uning huquqiy asoslari Konstitutsiya, shaxsga doir ma'lumotlar, kiberxavfsizlik, axborotlashtirish va raqamli transformatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ifodasini topmoqda. Biroq bu sohada qonunchilikni yanada tizimlashtirish, raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish, sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy chegaralarini belgilash, davlat axborot tizimlari xavfsizligini kuchaytirish va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish

dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Demak, raqamli suverenitetni ta'minlash davlatning raqamli kelajakdagi mustaqilligi, fuqarolarning raqamli huquqlari va milliy xavfsizlikning muhim kafolati sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni. 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son.
5. Floridi L. *The Fight for Digital Sovereignty: What It Is, and Why It Matters, Especially for the EU*. Philosophy & Technology. 2020.
6. European Parliamentary Research Service. *Digital Sovereignty for Europe*. Brussels, 2020.
7. European Commission Joint Research Centre. *Towards a Common Understanding of EU Digital Sovereignty*. 2025.